FARG‘ONA VILOYATI YOZYOVON TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 23-avgust | 219-11-165-Q/24 | Yozyovon tuman hokimligi

Tuman hududidagi yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli avtomototransport vositalari va ularga tirkamalarni majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013-y, 15-son, 197-modda) hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021- yil 9- martdagi 125-sonli “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 10.03.2021 y, 09/21/125/0195-son) muvofiq tumanda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash maqsadida

Q A R O R Q I L A M A N

1. Tuman hududidagi mulkchilik shaklidan qat’iy nazar yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli avtomototransport vositalari va ularga tirkamalar tegishli tartibda majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin.

2. Transport vositalari quyidagi davriylikka muvofiq texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin: a) tijorat asosida yo‘lovchilar tashish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yengil avtomobillar, avtobuslar, trolleybuslar, tramvaylar va o‘rindiqlar soni 8 ta va undan ortiq bo‘lgan (haydovchining o‘rnidan tashqari), odamlarni muntazam tashish uchun jihozlangan yuk avtomobillari, yirik gabaritli, og‘ir vaznli va xavfli yuklarni tashish uchun maxsus transport vositalari va ularning tirkamalari — bir yilda ikki marta;

b) ishlab chiqarilganiga olti yildan ko‘p bo‘lmagan transport vositalari (mazkur bandning «a» kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) — ikki yilda bir marta;

v) ishlab chiqarilganiga olti yildan ortiq bo‘lgan, shuningdek, ishlab chiqarilgan vaqti aniq bo‘lmagan transport vositalari (mazkur bandning «a» kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) — bir yilda bir marta;

g) tirkamalar texnik ko‘rikka transport vositasi — shatakchi uchun belgilangan muddatlarda;

d) navbatdagi texnik ko‘rikdan o‘tkazishning ilgari o‘rnatilgan muddatlaridan qat’i nazar, ularni DYHXX organlarida ro‘yxatdan o‘tkazish (qayta ro‘yxatdan

o‘tkazish) vaqtida (birinchi marta ro‘yxatga olinayotgan yangi transport vositalari bundan mustasno).

Ishlab chiqarilganiga o‘n yilgacha (o‘ninchi yili ham) bo‘lgan jismoniy shaxslarga tegishli M1 toifadagi transport vositalari (tijorat asosida yo‘lovchilar tashish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi engil avtomobillar, avtobuslar, trolleybuslar, tramvaylar va o‘rindiqlar soni 8 ta va undan ortiq bo‘lgan (haydovchining o‘rnidan tashqari), odamlarni muntazam tashish uchun jihozlangan yuk avtomobillari, yirik gabaritli, og‘ir vaznli va xavfli yuklarni tashish uchun maxsus transport vositalari va ularning tirkamalaridan tashqari) texnik ko‘rikdan ixtiyoriy ravishda o‘tkaziladi.

3. Mazkur Nizomning 5-bandi «a» kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalarining texnik ko‘rigi:

birinchi marta — 1 mart — 30 iyunda;

ikkinchi marta — 1 sentabr — 31 oktabrda o‘tkaziladi.

Jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli boshqa transport vositalarining texnik ko‘rigi

1 yanvar — 31 dekabrda o‘tkaziladi.

4. Yangi transport vositalari DYHXX organlarida ro‘yxatdan o‘tkazishda texnik ko‘rikdan o‘tkazilmaydi

5. Transport vositalari DYHXX organlari tomonidan texnik ko‘rikdan o‘tkazilganligi uchun O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadigan miqdorda yig‘im undiriladi. Birinchi (oldingi) texnik ko‘rikda nosoz deb topilgan transport vositalari takroriy texnik ko‘rikdan o‘tkazilganlik uchun yig‘im undiriladi. Texnik ko‘rik o‘tkazilganligi uchun yig‘im summasi mahalliy byudjetga o‘tkazilsin.

6. Texnik ko‘rikni o‘tkazish jadvali 1-ilovaga; texnik ko‘rikni o‘tkazishbo‘yicha komissiyaning tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

7. Texnik ko‘rikni o‘tkazish bo‘yicha komissiya raisi (M.Zokirov)ga: yuridik shaxslarga texnik ko‘rik o‘tkaziladigan muddatlar to‘g‘risidagi bildirishnoma yuborish; Texnik ko‘rikni tashkilotlarda, diagnostika stansiyalarida (mobil stansiyalarida) va texnik xizmat ko‘rsatish stansiyalarida ish vaqtida, texnik nazorat postlarida ish kunlarining kunduzgi va tungi vaqtlarida yoki haftaning dam olish kunlaridan birida o‘tkazish; texnik ko‘rikdan o‘tkazishda texnik jihatdan nosoz deb topilgan transport vositasining, shuningdek texnik holati belgilangan talablarga javob bermaydigan yoki tegishli ruxsatnomasiz qayta jihozlangan transport vositalarining kamchiliklari va nosozliklarini bartaraf etish bo‘yicha belgilangan tartibda tegishli choralarni ko‘rish vazifalari yuklatilsin.

8. “Markaziy Farg'ona” (A.Xudoyqulov) gazetasida mazkur qaror e’lon qilinsin hamda hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

9. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

10. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari D.Bekmirzayev zimmasiga yuklatilsin.

Туман ҳокими **D.T.Djalilov**

Yozyovon tuman hokimining
2024-yil 23-avgustdagi
219-11-165-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Tumandagi yuridik va jismoniy shaxslarga qarashli avtomototransport vositalarining 2024-yilgi majburiy texnik ko'rigini o`tkazish

J A D V A L I

1-GURUH

T/r	Avtokorxonalar nomi	Manzili	O'tkazish kuni	Avtomabillar soni	Matotsikllar soni	Tirkamalar soni
	Jismoniy shaxslarning transport vositasi	**Belgilangan xududlarda**	**01.04.2024 31.08.2024**	**298**	**4**	**3**
Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi 08054						
1.	Katta andijon kanali	Guliston q.f.y	30.03.2024	7	1	
	Jami			**7**	**1**	
	Oliy va o'rta ta'lim vazirligi 03903					
2.	1-sonli Kasb- xunar kolleji	Shaxarcha	06.04.2024	10		
3.	2-sonli Kasb- xunar kolleji	Shaxarcha	09.04.2024	9		1
4.	3-sonli Kasb- xunar kolleji	Ishtirxon q.f.y	10.04.2024	4		
	Jami			**23**		
	Xalq ta'limi vazirligi 04423		11.04.2024			
5.	Xalq ta'limi bo'limi	Shaharcha	13.04.2024	6		
	Jami			**6**		
	Kommunal xizmat vazirligi 07244		14.04.2024			
6.	Suv oqava korxonasi	Shaharcha	16.04.2024	2		
7.	Gazlashtirish idorasi	Shaharcha	18.03.2024	**12**		
	Jami			**14**		
	Sog'likni saqlash bo'limi 03873		20.04.2024			
9.	Yozyovon tumani Tibbiy	Shaharcha	23.0.202	23		

	birlashmasi		4			
	Jami			23		
	Davlat soliq qo'mitasi 70414		25.04.2024			
10.	Soliq inspektsiyasi	Shaharcha	26.04.2024	**2**		
	Jami			**2**		
	Uzavtoyo'l boshqarmasi 07314		26.04.2024			
11.	Yozyovon TYFUK	Shaharcha	27.04.2024	17	1	1
	Jami			**17**		
	Vatanparvar vazirligi 04864		28.04.2024			
12.	Vatanparvar Yozyovon avtomobil maktabi	Shaharcha	28.04.2024	**21**		
	Jami	**21**				

2-GURUX

1	Adolat fermer xo'jaligi	Guliston q.f.y	02.07.2024	2		
2	Soxibkor fermer xo'jaligi	Guliston q.f.y	02.07.2024	1		
3	Tolquduq fermer xo'jaligi	Guliston q.f.y	02.07.2024	1		
4	Xamal fermer xo'jaligi	q.f.y	02.07.2024	1		
5	Sabr-2001 fermer xo'jaligi	q.f.y	02.07.2024	4		
6	SHavkat ota fermer xo'jaligi	q.f.y	02.07.2024	1		
7	CHorvador fermer xo'jaligi	Qorosoqol q.f.y	02.07.2024	2		
8	Rustam al xaqiqat fermer xo'jaligi	q.f.y	02.07.2024	1		
9	Navro'z fermer xo'jaligi	q.f.y	02.07.2024	2		
10	Boqiy fermer xo'jaligi	q.f.y	02.07.2024	1		
11	Ruzali fermer xo'jaligi	Xonabod q.f.y	02.07.2024	1		
12	Ikrom ota fermer xo'jaligi	Xonabod q.f.y	02.07.2024	2		
13	Moxinur fermer xo'jaligi	Cho'liguliston q.f.y	02.07.2024	1		
14	Zarchi fermer xo'jaligi	Cho'liguliston q.f.y	02.07.2024	1		
15	Ruzivonxoji ona fermer xo'jaligi	Guliston q.f.y	02.07.2024	1		
16	Qaldirg'och fermer xo'jaligi	Qoratepa q.f.y	02.07.2024	3		

17	Farmamadali fermer xo'jaligi	q.f.y	02.07.2024	1		
18	Usta madumar fermer xo'jaligi	q.f.y	02.07.2024	1		
19	Usta yo'ldash fermer xo'jaligi	Qoratepa q.f.y	02.07.2024	2		
20	M. Umarov fermer xo'jaligi	q.f.y	02.07.2024	1		
21	Eshonjonbobo fermer xo'jaligi	q.f.y	02.07.2024	2		
22	Fargulshan fermer xo'jaligi	Yangiobod q.f.y	02.07.2024	1		
23	Dostonbek fermer xo'jaligi	q.f.y	02.07.2024	2		
24	O'.Toshboev fermer xo'jaligi	q.f.y	02.07.2024	1		
25	Moviy ko'llar ziynati fermer xo'jaligi		14.08.2024	1		
26	CHashmaiy Rayxon fermer xo'jaligi	Guliston q.f.y	14.08.2024	1		
27	Fayizli Guliston yeri fermer xo'jaligi	Guliston q.f.y	14.08.2024	1		
28	Far Boxovuddin fermer xo'jaligi	Qoratepa q.f.y	14.08.2024	3		
29	Jasur Jamshid Fayz fermer xo'jaligi	Qoratepa q.f.y	14.08.2024	1		
30	Qoratepa Zamin Ne'matlari fermer xo'jaligi	Qoratepa q.f.y	14.08.2024	2		
31	Axmedova Dilnoza fermer xo'jaligi	Qoratepa q.f.y	14.08.2024	1		
32	Far Zulfkor fermer xo'jaligi	Qoratepa q.f.y	14.08.2024	3		
33	Far G'alaba fermer xo'jaligi	Qorasoqol q.f.y	14.08.2024	2		
34	Oltinko'l fermer xo'jaligi	Guliston q.f.y	14.08.2024	1		
35	Agroplanet fermer xo'jaligi	Guliston q.f.y	14.08.2024	1		1
36	Baxrombek fermer xo'jaligi	q.f.y	14.08.2024	1		
37	Ergash ota fermer xo'jaligi	q.f.y	16.08.2024	2		
38	Umidjon fermer xo'jaligi	q.f.y	17.09.2024	1		
	Ja’mi		**57**			
	Boshqa vazirliklar 09999					
39	Muruvat progress	Guliston q.f.y	21.08.2024	6		
40	Iqbol Nomli Ko'ptarmokli x/k	Shaharcha	21.08.2024	2		
41	Koinot Ko'hinur Jilvasi x/k	Shaharcha	21.08.2024	1		
42	Mayram x/k	Qotortol q.f.y	21.08.2024	1	1	
43	Vodiy Lazzat Issiq non mchj	Shaharcha	21.08.2024	1		
44	KK.Makkoferri Fergan m.ch.j	Shaharcha	21.08.204	1		
45	Maxsutali x/k	Shaharcha	21.08.2024	1		
46	Dizel Grant Fayz m.ch.j	Shaharcha	21.08.2024	1		

47	Rashidxon Tekistil x/k	Guliston q.f.y	21.08.2024	1		
48	.BK.VAA.I.MK.M x/k	Shaharcha	21.08.2024	1		
49	Sodikzoda Moxlaroyim x/k	Shaharcha	21.08.2024	1		
50	Binkom Serviz Plyus x/k	Shaharcha	21.08.2024	2		
51	Toxirbek SHifo Farim x/k	Qoratepa q.f.y	21.08.2024	1		
52	Zabardos Toj x/k	Guliston q.f.y	21.08.2024	1		
53	Marg Energo Neft m.ch.j	Shaharcha	21.08.2024	2		
54	OOO BRAVO EVENT x/k	Guliston q.f.y	21.08.2024	2		
55	Olimjonov Solijon x/k	Shaharcha	21.08.2024	1		
56	Ziyodillo Izzatillo Fayz x/k	Mingchinor q.f.y	21.08.2024	1		
57	Farg'ona Mehnat Savdo m.ch.j	Shaharcha	21.08.2024	4		
58	Saxovat korxonasi	q.f.y	24.09.2024	1		
59	Mexnat bo'limi	Shaharcha	24.09.2024	2		
60	Guliston korxonasi	Guliston q.f.y	24.09.2024	1		
61	Kamol korxonasi	Shaharcha	24.09.2024	1		
62	Markaziy farg'ona ro'znomasi	Shaharcha	24.09.2024	1		
63	Ortiqov Yusuf korxonasi	Qoratepa q.f.y	24.09.2024	2		
64	G'ayratli istiqbol korxonasi	Qorasoqol q.f.y	24.09.2024	2		
65	Edeyl eveys xus korxonasi	Shaharcha	06.03.2024	2		
66	Nurli olmos korxonasi	Guliston q.f.y	06.03.2024	2		
67	Far sotton xus.korxonasi	Guliston q.f.y	06.03.2024	4	1	
68	Aripov abror xus korxonasi	Xonabod q.f.y	06.03.2024	1		
69	Bandalikka ko'maklashuvchi	Shaxarcha	06.03.2024	1		
70	Vetirinariya san stantsiya	Xonabod q.f.y	06.03.2024	1		
71	Imomi muslim tekist	Shaharcha	06.03.2024	1		
72	osiyo ko'rki xus.korxonasi	Shaharcha	06.03.2024	1		
73	Ko'zi ojizlar korxonasi	q.f.y	06.03.2024	1		
74	Mirsaidbek korxonasi	q.f.y	06.03.2024	1		
75	Feruz korxonasi	q.f.y	06.03.2024	1		
76	Jahongir korxonasi	q.f.y	06.03.2024	1		
77	Qo'ziboev Nabi korxonasi	Guliston q.f.y	06.03.2024	1		
78	O'quv ishlab chiqarish korxonasi	Xonabod q.f.y	06.03.2024	1		
79	Kelajak korxonasi	q.f.y	06.03.2024	1		
80	Iqbol korxornasi	q.f.y	06.03.2024	1		
81	Umarov Bobirmirza xus. korxona	q.f.y	06.03.2024	2		
72	To'lanboy Azimov fayz	Qorasokol q.f.y	21.04.2024	1		
83	Tuman hokimligi	shaharchasi	21.04.2024	8		
84	Yug gaz spetsmontaj unitar	Yangiobod q.f.y	21.04.2024	54		

Jami :	**298**